

**YANGI O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNING AYRIM MASALALARI**

Tillavoldieva M.X -
O‘zMPU dotsenti

Bugun dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlarni anglash, ularni ma’lum bir tizim, tushuncha yoki modelga solish keng tarqalgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Har bir asarda, har bir mavzu shu o‘zgarishlarga bevosita aloqadami yoki yo‘q, **raqamlashtirilayotgan jamiyat yoki raqamli texnologiyalar** haqida fikr yuritadi. Bu tadqiqotchining xohish yoki mavzusini globalashtirishga intilishi ifodasi emas, balki, zamon, dunyo, taraqqiyot haqidagi yondashishni bayon qilish, bildirish istagidir. Demak, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashash bosqichiga o‘tdi. **Raqamlashtirilgan jamiyat yoki raqamli texnologiyalar** [1] nomi bilan atalayotgan bu sharoitda iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy-axloqiy aloqalar intensiv tus olmoqda. Jamiyat yuksak darajada rivojlanmasin, uning ehtiyojlari ham shunchalik oshib boradi.

U bugun kechagiga qaraganda, ertaga esa, undan-da ko‘proq yaxshi yashashga, moddiy-ma’naviy barkamollikka erishishga va farovon hayot kechirishga intiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, insoniyatning yuksak darajada to‘kin, farovon yashashini ta’min etuvchi tabiiy-geografik omillar inson xohish istagicha emas, balki o‘z holicha mavjud. Bu omillar farovon turmushning o‘ziga xos muhim sharti bo‘lib, yuzida davlatlar, saltanatlar tashkil topganidan beri bu borada ustunlik qilish uchun, o‘ziga xos qulayliklarga erishish uchun kurashlar muttasil davom etib kelmoqda. Aslida, bu insoniyat taraqqiyotining mazmuni, uning hayot kechirish qonuniyati va falsafasi hisoblanadi. Bir qaraganda, bunday intilish tabiiy hisoblanadi [2].

Muammo, ana shu intilishlarda moddiy manfaatdorlikka bo‘lgan intilish bilan ma’naviyatni unga mos ravishda rivojlantirishga bo‘lgan zaruriyat o‘rtasidagi muvozanatning yo‘qolib borishida namoyon bo‘lmoqda. Buni yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlar o‘zlarining ulkan intellektual salohiyatlari bilan fan, texnika va texnologiyaning eng zamonaviy turlarini yaratib, ular vositasida mintaqalarda mavjud bo‘lgan xomashyo resurslarini qo‘lga kiritishning eng jirkanch uslublaridan foydalanib, ana shu mintaqa xalqlarini, avvalo, moddiy jihatdan qaram qilish hamda bu omil vositasida ularni o‘ziga xos ma’naviyatini ham barbod qilish yo‘li bilan uning o‘rniga o‘zlarining ma’naviyatini ommaviylashtirishga bo‘lgan urinishlarida namoyon bo‘layotganligida ko‘rish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bugun raqamli texnologiyalar kirib bormagan soha qolmadi. Qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy raqamli texnologiyalar yangilanishlarning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Shu nuqtai-nazardan yurtimizda iqtisodiy-barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta’minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, eng avvalo, sohaning ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy asoslarini shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarida ifoda etilganidek, Yangilanayotgan O‘zbekiston **“Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat”** degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda [3].

Mavzuga doir jahon manbalarini o‘rganish, atrofimizdagi real voqealikni kuzatish - raqamlashtirishning jahon mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu hol dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari qanday ekani bilan bog‘liq.

Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib, unga moslashish, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Jamiyatni **raqamlashtirish** yana shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma’naviyatini **tog‘dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo‘yish bilan**

barobardir, deya ta'riflash uchun mubolog'a bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, **bizning fikrimizcha, ijtimoiy taraqqiyot, raqamlashtirish, raqamli savodxonlik, raqamli axloqiy aksiologik madaniyat va raqamli ta'lim** tushunchalarini, ularning ma'no-mazmunini tushunib yetish zaruriyati yuzaga keladi [8].

Keyingi o'tgan 5 yil davr mobaynida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarga e'tibor beriladigan bo'lsa, bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganini guvohi bo'lamiz.

Albatta, bu jarayon xususida, uning mohiyati to'g'risida, undan ko'zlangan maqsadlar to'g'risida, bu jarayonni amalga oshuvini ta'minlaydigan vositalar, usullar xususida chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Va bu ilmiy - nazariy asoslardan olib borilayotgan itimoiy, ma'naviy- ma'rifiy sohadagi siyosatning yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanish zarur. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tusak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga yetarli ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan tashqi siyosati islohotlari ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, raqamli texnologiya mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlari va milliy taraqqiyotga ta'sirini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur.

Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqaligina o'zimiz uchun to'g'ri yo'l tanlashimiz va qarorlar qabul qilishimiz uchun imkoniyat yaratishimiz mumkin. Demak, **raqamlashtirilayotgan, Yangilanayotgan O'zbekiston** ijtimoiy taraqqiyotiga erishish va mustahkamlash uchun kurashning yangicha yo'llari va vositalarini izlab topish zarurati paydo bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Bu masala bo'yicha Prezident Sh.Mirziyoev asarlari [9] da ilgari surilgan fikrlar nazariy va metodologik asos bo'ladi, albatta.

Biroq chet davlatlar, ayniqsa, yirik davlatlar **raqamlashtirilgan jamiyatda;**

Birinchiidan – o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun g'oyaviy ta'sir ko'rsatishning turli-tuman vositalaridan foydalanmoqdalar.

Ikkinchi tomondan - g'oyaviy jihatdan chiniqmagan, falsafiy ongi yetarli bo'lmagan individlar, avvalo, yoshlarni yo'ldan urish niyatidan qaytmayotirlar. Bunday sharoitda milliy barqaror taraqqiyotni g'oyaviy-falsafiy jihatdan mustahkamlash uchun tadqiqotlar o'tkazish va aholida "axloqiy- aksiologik raqamli madaniyat"ni shakllantirish va mustahkamlash yo'llari, usullari, vositalarini izlab topish zarurati paydo bo'lmoqda. Jahon miqyosida **raqamlashtirish** tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekistonda shu munosabat bilan jamiyat nafaqat axborotlashgan, balki **raqamli texnologik jamiyat** bo'lib bormoqda ham. Shu jihatdan olib qaraganda, jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish borasida raqamli transformatsiya alohida ahamiyatga ega. Buni anglab yetgan Prezidentimiz Sh. Mirziyoev raqamlashtirish siyosatiga e'tibor qaratib, amalga oshirilayotgan islohotlarda haqiqiy raqamlashtirilgan jamiyatni barpo etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mavzuni dolzarbligini quyidagicha izoxlash mumkin deb xisoblaymiz: Jumladan:

Birinchiidan - Raqamlashtirish jarayoni tobora xalqlar va millatlarning turmushiga chuqurroq kirib bormoqda va buning oqibatida jamiyat raqamlashtirilmoqda. Oqibatda xalqlar va millatlar hayotiga texnika, fan va texnologiya yutuqlari bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning axloqiy va ma'naviy qadriyatlar ham kirib kelmoqda. Buning natijasida milliy dunyoqarash va millat qadriyatlariga munosabat masalasi ham o'zgarib bormoqda. Ana shu jarayonning oldi olinmas ekan, istiqbolda ijtimoiy taraqqiyot xavf ostida qolishi va pirovard natijada millatlar taqdiri tanazzulga yuz tutishi mumkinligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ikkinchiidan - Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribalari ko'rsatmoqdaki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti inson omili bilan chambarchas bog'liq [10].

Ammo ijtimoiy taraqqiyot bilan inson har doim ham o'zaro uyg'un holda rivojlanmagan. Ayrim mamlakatlar ijtimoiy hayoti yuksak taraqqiy qilgan bir sharoitda madaniyati nisbatan orqada qolgan. Bu hol, bir tomondan, inson bilan jamiyat o'rtasida o'zaro begonalashuvni, ikkinchi tomondan, axloqiy inqirozni keltirib chiqarmoqda. Mazkur salbiy jarayonning oldini olish jahon miqyosidagi dolzarb muammoga aylandi.

Uchinchidan - Jahonda yuzaga kelgan mazkur muammoning oldini olmasdan turib, yuksak ma'rifatlashgan jamiyat qurib bo'lmasligini rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy tajribalari, ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan "raqamli buxronlar" yuzaga keltirayotgan ma'naviy inqirozning sabablari, ildizlari, uning global muammoga aylanayotganligi bilan bog'liq tadqiqotlar tasdiqlamoqda. Ijtimoiy taraqqiyot bilan inson omili o'zaro uyg'unligi, ularning mustahkam aloqadorlik negizida rivojlanishigina mamlakatlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashi mumkin. Shu sababli, muayyan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotini yuksak darajaga ko'tarish qanchalik muhim bo'lsa, uni inson raqamli axloqiy-aksiologik madaniyatini yuksaltirish bilan uyg'unlashtirish ham muximdir.

To'rtinchidan - Ob'ektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq kishilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va xududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib bormoqdaki, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmaganligini tushunish, anglash qiyin emas. Demak, bu jarayon **Raqamlashtirilayotgan va Yangilanayotgan** O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Beshinchidan - Dunyoda chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda yer yuzining turli nuqtalarida millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf qilish, ularning oldini olish-kishilik jamiyati tarixiy-tadrijiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda.

Oltinchidan - Amaldagi ijtimoiy taraqqiyot modellarining mohiyati, ularning g'oyaviy-falsafiy asoslarini ilmiy-qiyosiy-falsafiy o'rganishini dolzarb qilib qo'yimoqda.

Yettinchidan - Raqamli texnologiyalar va globallashtirish taraqqiy qilgan millatlar manfaatiga xizmat qilish, millatlarning unga qarshi turishida vaqt va imkoniyatlarni qo'ldan berib qo'yayotganligi bilan bog'liq.

Shu jihatdan olib qaraganda, raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy taraqqiyot va axloqiy yuksalish o'rnini oshib borayotganligiga e'tibor qaratish va milliy taraqqiyotga erishishda raqamli ilm-fanni takomillashtirish - eng ustuvorlik kasb etmog'i, shubhasiz. Bunga esa islohotlarni joriy etilishi va hayotga tadbiq etilishi orqaligina erishish mumkinligini qayd etish lozim [11].

Umuman olganda, Ushbu qarashlar nuqtai-nazaridan, maqola Ijtimoiy taraqqiyotda raqamlashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari masalasiga o'rin ajratildi. Bugungi kunda ijtimoiy -siyosiy qarashlarimizda yangicha tafakkur va shunga muvofiq turmush tarzi shakllanib bormoqda.

Yangi O'zbekistonni ijtimoiy raqamli rivojlantirish borasidagi yangicha qarashlar va ijtimoiy-madaniy omillarining demokratik qadriyatlarga muvofiq yuksaltirishdagi ahamiyatiga oid konseptual g'oyalar Normativ-huquqiy hujjatlar va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida, shuningdek, metodologik ahamiyatga molik nashrlarda keng ochib berilgan.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 6 iyundagi "Komputerlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Tillavoldiyeva.M.X. Raqamli madaniyatni shakllantirish davr talabi. Iqtisod va zamonaviy texnologiya milliy jurnali.Toshken -2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023 y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. Prezident Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 y. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari biriga aylanayotganligi haqida.

5. Tillavoldiyeva.M.X.Raqamli madaniyatni shakllantirish davr talabi. Iqtisod va zamonaviy texnologiya milliy jurnali.Toshkent-2023.
6. Tillavoldiyeva M.X.Raqamli savodxonlik va ijtimoiy rivojlanishdagi munosabatlar 2024. fardu. Ilmiy axborotnoma. ijtimoiy gumanitar fanlar sohasi.
7. Tillavoldiyeva M.X. Raqamli savodxonlik va ijtimoiy rivojlanishdagi munosabatlar 2024. fardu. Ilmiy axborotnoma. ijtimoiy gumanitar fanlar soxasi rivojlanishdagi munosabatlar.
8. Tillavoldiyeva M.X.Raqamli savodxonlik va ijtimoiy rivojlanishdagi munosabatlar 2024 yil fardu. Ilmiy axborotnoma. Ijtimoiy gumanitar fanlar soxasi.
9. Mirziyoyev Sh.M. «Markaziy osiyo: yagona tarix va umum kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yoʻlidagi hamkorlik» xalqaro konfyerunsiydagi maʼruzasi Sam. 2017 yil. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. Toshkent: «Oʻzbekiston», 2021 - B. 34-35. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼit bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. – T.: «Oʻzbekiston» 2017. B.324.
10. Tillavoldiyeva M.X.Raqamli savodxonlik va ijtimoiy rivojlanishdagi munosabatlar .2024. fardu. Ilmiy axborotnoma. Ijtimoiy gumanitar fanlar soxasi.
11. Tillavoldiyeva.M.X.Raqamli madaniyatni shakllantirish davr talabi. Iqtisod va zamonaviy texnologiya milliy jurnali.Toshkent-2023. Tillavoldiyeva M.X.Raqamli savodxonlik va ijtimoiy rivojlanishdagi munosabatlar .2024 yil fardu. Ilmiy axborotnoma. Ijtimoiy gumanitar fanlar soha.

REZYUME:

Maqolada yurtimizda iqtisodiy-barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni taʼminlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish taxlil etildi.

Kalit soʻzlar: Yangi Oʻzbekiston, raqamli texnologiyalar, axloq, axborot-kommunikatsiya, ijtimoiy, maʼnaviy, iqtisodiy-barqarorlik, tabiiy, geografik omill.

РЕЗИОМЕ:

В статье социально-философски обоснована идея о том, что в целях обеспечения экономической стабильности, социального благополучия, дальнейшего повышения уровня жизни населения в нашей стране уделяется внимание широкому внедрению информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, цифровые технологии, этика, информационная коммуникация, социальная, духовная, экономическая устойчивость, природный, географический фактор.

RESUME:

The article provides a socio-philosophical analysis of the fact that in order to ensure economic stability, social well-being, and further improve the standard of living of the population in our country, attention is paid to the widespread implementation of information and communication technologies in all areas.

Base words: New Uzbekistan, digital technologies, ethics, information and communication, social, spiritual, economic-stability, natural, geographical omill.